

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SOLAYDINOV ELMURODJON SHOROIDINOVICH

**ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI
BELLASHUV FAOLIYATINING TURLI USLUBLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Solaydinov Elmurod Shoroidinovich

Erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligini bellashuv faoliyatining turli uslublari asosida takomillashtirish 3

Солайдинов Элмурод Шоройдинович

Совершенствование технико-тактической подготовки борцов вольного стиля на основе различных методов соревновательной деятельности 31

Solaydinov Elmurod Shoroidinovich

Improvement of the technical and tactical training of freestyle wrestlers based on various methods of competitive activity 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SOLAYDINOV ELMURODJON SHOROIDINOVICH

**ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI
BELLASHUV FAOLIYATINING TURLI USLUBLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7263 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb saxifasida www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Dilbar Djamalovna
biologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Kochkarov Atabek Axmatvayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Juraxanov Xamidullo Xojimirzayevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Abu Rayhon Beruniy Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy Tel: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:.(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d.,(DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda zamonaviy sport turlarida ustivor muammo nafaqat yuqori sport natijalariga erishishni samarali vositalarini izlab topish balki, unda sport kurashlari sportchilarning sport formasini saqlash muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Ushbu muammoni hal qilish har xil holatlar tufayli murakkablashgan bo'lib, ularning ichida xalqaro darajada doimiy ortib boruvchi raqobatni, musobaqalar qoidalarini o'zgarishini, sport faoliyatida texnik-taktik mahoratni va har xil usullarni professionallashtirishni oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Yuqori natijalar erishishda "Kuberten modeli" boshqa modelga "Samaranch modeliga" transformatsiya bo'layapti va bu holat, mashg'ulot tayyorgarligini va musobaqalarni o'tkazilishini tashkil qilish jarayonlariga sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. Olimpiya va professional sportni yaqinlashishi, sportning yangi turlarini eng yirik xalqaro musobaqalar dasturlariga kiritilishi sodir bo'lmoqda. Qayd qilingan barcha holatlar, ancha detallashtirilgan holda o'rganishni va erkin kurashchilarni mashg'ulot va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish jihatidan tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish dolzarblilik kasb etmoqda.

Jahonda sportning tijoratlashuvi oqibatida har xil mamlakatlarning yetakchi yakka kurashchilarini sport mahoratini tenglashtirish asosida raqobatni doimiy tarzda ortib borishi hamda murabbiylarning xatolari ko'pincha sport natijalarini barqarorligini pasayishiga va xattoki yuqori malakali kurashchilarni nufuzli xalqaro musobaqalarda rejalashtirilmagan mag'lubiyatiga olib kelmoqda. Biroq sportchilarning fiziologik resurslari ham chegaraga ega, bunday submaksimal, maksimal yuklamalarni erkin kurashchilar organizmiga uzoq muddatli ta'sir qilishi funksional holatni pasayishiga va xattoki sportda jarohatlanish xavfini ortishiga olib kelishini ilmiy asoslab berishgan. Ushbu holatlar kurashchilarni tayyorlash tizimini, jumladan mashg'ulot va musobaqa faoliyatini rejalashtirish, erkin kurashchilarni texnik-taktik mahoratini bellashuvni har xil usulida olib borishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda yakkakurash sport turlarini rivojlantirish hamda aholining har xil qatlamlarida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish uchun zarur bo'lgan infrastrukturani yaratish, mamlakatni xalqaro sport arenalarida nufuzini ko'tarishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu tufayli zamonaviy erkin kurash sport turining an'analari tarkibiga "Iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalari uchun zahirani yaratish"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Mamlakatimizni sport yakkakurashlari sohasidagi erkin kurash nazariyasi va uslubiyati masalalarini, spesifik nasliy belgilariga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarni saralash muammolarini hal qilishga zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Erkin kurashchilar mos ravishdagi mashg'ulotlarda shug'ullanganida rekord natijaga erishish imkonini ta'minlamoqda. Sport yakkakurashlari turlarini,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

jumladan erkin kurash, dzyudochilar, kurashchilar va bokschilar vakillari musobaqalarda ayniqsa muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda. Erkin kurashchilarimiz ham O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi hisobiga medallar olib kelishmoqda. Bunday takomillashtirish yo‘nalishlarini barcha birligida bellashuvni har xil usullarda olib boradigan erkin kurashchilarni texnik-taktik mahorati jarayonining samaradorligi muammosini hal qilish dolzarb o‘rin egallamoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O‘zRQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sportini yanada rivojlantirish va uning halqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-yanavardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda sport yakkakurashlari sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan sport kurashi turlari nazariyasi va uslubiyati bo‘yicha F.A.Kerimov, Yu.S.Kim, L.P.Yugay, Sh.A.Mirzakulov, J.Toshnazarov, E.Raxmonov, X.Juraxanovlar umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlaridan erkin kurashning spesifikasiga moslashtirilgan va kurashchilarni asosiy jismoniy sifatlari dinamikasini va funksional xususiyatlarini aks etuvchi testlash usullarini hamda erkin kurash mashg‘ulotlarida zamonaviy uskunalardan foydalanish mexanizmlarini N.A.Tastanov, E.I.Bayturaev va S.Q.Adilovlar²lar ishlab chiqishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan R.S.Patratiy, R.A.Piloyan, A.A.Karelin, B.I.Tarakanov, Yu.V.Avdeev, R.N.Apoyko, A.B.Taymazovlar³ erkin kurashchilarning tavsiflari va yuqori malakali

² Керимов Ф. А. Научные исследования в спорте.Т.:ИТА-ПИРЕСС, 2018. - 316 с.; Байтураев Е.И. Самбо кураши назарияси ва услубияти / Дарслик «Танаддун», 2016. – 256 б.; Ким Ю.С., Л.П.Югай. Основы дзюдо Изд-во Издателско-полиграфический отдел УзГИФК, 2005. – 137 с.; Мирзакулов Ш.А. Белбог‘ли кураш назарияси ва услублари / О‘quv qo‘llanma Т.: 2014 - 216 б.; Tastanov N. Kurash turlari nazariyasi uslubiyati / darslik. Toshkent, 2015. – 369 б.; Адиллов С.К. Эркин кураш спортчиларининг координацион қобилиятларини ривожлантириш ва техник-тактик ҳаракатлари самарадорлигини ошириш технологияси //13.00.04 – Жисмоний тарбия ва спорт машг‘улотлари назарияси ва методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати Чирчик, 2019. - 56 б.

³ Патратий Р.С. Взаимосвязь технических действий и морфологических особенностей борцов волного стиля /Р. С. Патратий / Спортивной борба. – М., Фис. 1976. - С. 48-51.; Пилоян, Р.А. Многолетняя подготовка спортсменов-единоборцев: Учебное пособие / Р.А. Пилоян, А.Д. Суханов. Малаховка: МГАФК,

kurashchilar tayyorgarligiga ta'sir qiluvchi, ular tanasining jismoniy komponentlari ko'rib chiqilgan. Musobaqalar o'tkazish qoidalaridagi o'zgarishlar evolyusiyasi xususiyatlari, sport kurashi bo'yicha ilgari ishlab chiqilgan nazariya va uslubiyat nizomlari o'rtasida disproporsiya mavjudligi aniqlangan. Keyinchalik UWW (Birlashgan kurash dunyosi) rahbarlarining qizg'in faoliyati tufayli musobaqalar qoidalariga prinsipial o'zgarishlar, musobaqalarni yangi qoidalar bo'yicha o'tkazilishi kurashchilardan nafaqat jismoniy, balki psixologik kuchlanishlarni talab qilgan va bu oxir oqibatda kuchsizlanishga, zahira imkoniyatlarni kamayishiga olib kelganligini ilmiy asoslab berishgan.

Horijda intensiv ravishda mashqlantirish jarayonini samarali tashkil etishni bir nechta horijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. J.E.L.Carter, T.R.Ackland, K.A.Lindsay, J.W.Myrer, M.D.Bishop, G.W.Fellingham, S.D.Callan, D.M.Brunner, K.L.Devolve, S.E.Mulligan, J.Hesson, R.L.Wilber, J.T.Kearney kabi mualliflar esa kurashchilarning morfologik xususiyatlari va funksional imkoniyatlarini H.Tunnemann, E.L.Lewis, K.A.Hasselfeld, R.C. Serfass, D.A.Curby, D.L.Montgomery, A.Broussal-Dervallar⁴ tomonidan yakkakurash sport turlari bo'yicha kurashchilarni tayyorlash metodikalarini ishlab chiqishgan. Shu bilan birga yakkakurashchilarni tayyorgarlik turlari bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan kompleks nazorat o'tkazish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Zamonaviy sport kurashining mazmuni uzluksiz takomillashmoqda, sportchilarning harakat potentsiali yangi usullar, himoyalanishlar, kombinatsiyalar

1999. - 99 с.; Тараканов Б.И. Педагогические основы упражнения для борцов Монография /Б.И.Тараканов СПбГАФК им Лесгафта ПФ 2000. - С. 162; Карелин А.А. Система интегральной подготовки высококвалифициро - ванных борцов: автореф. дис. ...д-ра пед. наук /А.А. Карелин; С. - Петерб. гос. акад. физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта. - Санкт-Петербург, 2002. - 47 с.; Авдеев Ю. В. Управление технико-тактический подготовкой борцов волной стиля высокий квалификации в связи с изменениями структуры соревновательный деятельности //Автореф. дис. канд. пед. наук, 13.00.04. /Авгеев Ю. В Рос. гос. пед.ун-т им А. И. Герцена Санкт-Петербург, 2006. - С. 22.; Таймазов А.Б., Б.И. Тараканов. Исследование специфики соревновательной деятельности борцов тяжелой весовой категории в современной волной борьбе // Ученые записки Университета им. П.Ф. Лесгафта.- 2016.- №4 (134).- стр. 277-282); Апойко Р.Н. Эволюция спортивной борьбы в международном олимпийском движении в ее влияние на основные компоненты подготовки борцов высшей квалификации: автореф. дис. ...д-ра пед. наук: 13.00.04 /Апойко Роман Николаевич; Нац. гос. ин-т физ. культуры, спорта и здоровья им. П.Ф. Лесгафта. - Санкт-Петербург, 2016. - 51.; Таймазов А.Б. Индивидуализация технико-тактической подготовки спортсменов высокого класса в современной волной борьбе, /// дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Санкт-Петербург – 2017. – 20 с.

⁴ Carter, J.E.L., & Ackland, T.R. (1994). Kinanthropometry in Aquatic Sports: A Study of World Class Athletes. Human Kinetics. – pp. 85-89.; Lindsay, K.A., Myrer, J.W., Bishop, M.D., & Fellingham, G.W. (1996). Reliability of Muscle Hardness Measurements. Journal of Athletic Training, 31(2), 125-129.; Callan, S.D., Brunner, D.M., Devolve, K.L., Mulligan, S.E., Hesson, J., Wilber, R.L., & Kearney, J.T. (2000). Physiological Profiles of Elite Freestyle Wrestlers. Journal of Strength and Conditioning Research, 14(2), - pp.162-169.; Tunnemann, H. (2000). Analysis of Wrestling World Championships 1997 in Wroclaw and 1998 in Gavle. International Journal of Wrestling Science, 1(1), 11-14.; Lewis, E.L., Hasselfeld, K.A., & Serfass, R.C. (2004). The Effects of a Wrestling Season on Body Composition, Strength, and Power in Collegiate Wrestlers. Journal of Strength and Conditioning Research, 18(3), - pp.598-604.; Curby, D.A. (2006). International Network of Wrestling Researchers: A New Resource for Coaches and Scientists. International Journal of Wrestling Science, 1(1), 5-8.; Montgomery, D.L. (2006). Physiology of Wrestling. In J.C. Thomas, J. Nelson, & S.A. Silverman (Eds.), Research Methods in Physical Activity (pp. 251-264).; Broussal-Derval, A. (2014). The Modern Art of High-Intensity Training. Human Kinetics. – pp. 56-59.

va bog‘lamlar bilan to‘ldirilmoqda. Biroq erkin kurashdagi ilmiy ishlanmalar va amaliy tavsiyalar yakka xarakterga ega, shunga qaramasdan bellashuvlarni olib borish usuli mazmun jihatidan o‘xshash malakaviy sxemalardan iborat bo‘lib, ularda bellashuvlarni olib borishning u yoki bu usuliga ega bo‘lgan erkin kurashchilarni individual xususiyatlari ular tomonidan qo‘llaniladigan texnik-taktik harakatlar tanlangan uslubga qanchalik mosligi hisobga olinmagan, kombinatsiyalarning barcha turlarini tuzish tizimi ishlab chiqilmaganligi sababli keltirilgan muammolarni hal qilish alohida dolzarblikka ega va mazkur tadqiqotni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari istiqbolli rejasining №29/1 “Jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini ishlab chiqish, uni yangilash taktikasi va strategiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligini bellashuvni har xil uslublarda olib borishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkin kurashchilarni jismoniy rivojlanishi va funksional holati ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni hamda farqlarni aniqlash;

xar xil usulda bellashadigan erkin kurashchilarni jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik darajasi orasida farqlanishi hamda o‘xshashligini tajribalarda asoslash;

erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishda tajriba dasturi strukturasi optimallashtirilgan xajmda samarali vositalarni saralash;

bellashuvni har xil usulda olib borishni egallagan erkin kurashchilarni takomillashtirish dasturini mashg‘ulotni har xil rejimlarda, uslublar ta‘sirida, ularning funksional holati va sport-texnik ko‘rsatkichlarini taqqoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi malakali erkin kurashchilarning musobaqa faoliyati va mashg‘ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligi va bellashuvni har xil usullarda olib borishni takomillashtirish asosidagi sport natijalarga erishishga qaratilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, erkin kurashchilarning musobaqa faoliyati videoyozuvlarini tahlil qilish, intervyu va suhbat ko‘rinishidagi so‘rovnoma, pedagogik kuzatish, pedagogic tahlil pedagogik test, tadqiqotlarni tibbiy-biologik majmualari, matematik-statistik kabi uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

erkin kurash, milliy kurash, dzyudo, sambo, yunon-rum kurashi kabi sport turlariga ixtisoslashgan kurashchilar tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, antropometrik va somatometrik tadqiqot usullari yordamida jismoniy rivojlanishi, tana vazn komponentlari tarkibini qiyosiy baholash, somatotiplarning toifasiga ko‘ra kurash turiga xos bo‘lgan dominant somatotip

turlarini aniqlash imkoniyatlari oshirilgan;

erkin kurashchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini tizimli yondashuvlar asosida hujumkorlik, kombinatsiyalashgan harakatlar va himoya uslublarini ongli ravishda tanlash, bellashuvlarning taktik strukturasi raqib harakatlariga moslashtirish va qarshi harakatlar samaradorligini oshirish orqali murakkab texnik harakatlarni bajarish imkoniyati kengaytirilgan;

erkin kurashchilarni turli bellashuv usullariga o'rgatish uchun yillik mashg'ulot sikl dasturida asosiy texnik-taktik harakatlar arsenalidagi samarali variantlarini qo'llash, "Toj" usullarni bajarish natijadorligini oshirish hamda kurashchilarning funksional holatini aks ettiruvchi informativ ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish hisobiga tik turgan holatda taktik harakatlarni qo'llash samaradorligi oshirilgan;

erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks takomillashtirish maqsadida yosh va malakasiga binoan belginalanadigan yuklamalarni vazn toifalarini inobatga olib yo'naltirish orqali erkin kurashchilarni musobaqa faoliyatida toj usullarini amalga oshirgandan so'ng parter holatida hujum harakatlarini davom ettirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli kurash uslublaridagi erkin kurashchilarning texnik va taktik mahoratining xususiyatlarini aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar to'plamini ishlab chiqilgan;

intensiv tayyorgarlik usullaridan (interval, aylanma, kompleks, intervalli-aylanma) ustunlik qilingan hamda jismoniy tayyorgarlik vositalarini tanlash, eng informativ testlardan foydalangan holda kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini davriy sinovdan o'tkazadigan pedagogik nazorat tizimi shakllantirilgan;

zamonaviy kurashning doimiy ravishda takomillashtirib, sportchilarning harakat salohiyati yangi uslublar, himoya vositalari, kurash usullarini hisobga olgan holda ta'minlashga qaratilgan kurashchilarni tayyorlash jarayonining an'anaviy tuzilmasi turli yo'nalishlarda kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi, bellashuvlarni o'tkazish uslubini funksional darajalar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, davlat sport tashkilotlarida erkin kurashchilarni texnik-taktik mahoratini bellashuvni har xil usulda olib borishni takomillashtirish asosida oshirish jismoniy tarbiya mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi xorijiy hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarini hamda tibbiy-biologik usullarni qo'llanilganligi, olingan ma'lumotlarga zamonaviy kompyuter texnikasining ma'lum dasturlaridan foydalanib ishlov berilganligi, tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba va nazorat guruhidan olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sport trenirovkasi nazariyasini erkin kurashchilarni texnik-taktik mahoratini bellashuvni har xil usulda olib borishni hisobga olish bilan takomillashtirishni oshirish to'g'risidagi bilimlar bilan boyitilgan bo'lib, erkin kurashchilarni bellashuvni tanlangan usulida olib borish doirasida tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, erkin kurashchilarni morfo-funksional tavsiflari majmuasini va ularni trenirovka jarayonida har xil usuldagi kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlari bilan korrelyatsion o'zaro aloqasini, sportchilarning musobaqa faoliyatidagi natijaviyligiga ishonchli pozitiv ta'sirini asoslash bilan hisobga olish amalga oshirish, olingan ilmiy ma'lumotlar bashoratli ahamiyatga ega chunki, kurashning har xil turlarida ixtisoslangan yakkakurashchi-sportchilarni tayyorlash tizimida amaliy tadqiqotlarni o'tkazilishi paytida qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligini bellashuvni har xil usularda olib borishni takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar asosida amaliyotga kiritildi:

erkin kurash, milliy kurash, dzyudo, sambo, yunon-rum kurashi kabi sport turlariga ixtisoslashgan kurashchilar tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, antropometrik va somatometrik tadqiqot usullari yordamida jismoniy rivojlanishi, tana vazn komponentlari tarkibini qiyosiy baholash, somatotiplarning toifasiga ko'ra kurash turiga xos bo'lgan dominant somatotip turlarini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurashchilarning mashg'ulotiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 14-oktabrdagi № 03-16/10158-son guvohnomasi). Natijada, erkin kurashchilarning funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari 14,1 % ga yaxshilangan;

erkin kurashchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini tizimli yondashuvlar asosida hujumkorlik, kombinatsiyalashgan harakatlar va himoya uslublarini ongli ravishda tanlash, bellashuvlarning taktik strukturasi raqib harakatlariga moslashtirish va qarshi harakatlar samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Namangan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurashchilarning mashg'ulotiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 14-oktabrdagi № 03-16/10158-son guvohnomasi). Natijada, erkin kurashchilarning texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari 13,7 % ga oshgan;

erkin kurashchilarni turli bellashuv usullariga o'rgatish uchun yillik mashg'ulot sikl dasturida asosiy texnik-taktik harakatlar arsenalidagi samarali variantlarini qo'llash, "Toj" usullarni bajarish natijadorligini oshirish hamda kurashchilarning funksional holatini aks ettiruvchi informativ ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurashchilarning mashg'ulotiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 14-oktabrdagi № 03-16/10158-son guvohnomasi). Natijada, erkin kurashchilarning taktik

tayyorgarlik ko'rsatkichlari 14,3 % ga o'sgan;

erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks takomillashtirish maqsadida yosh va malakasiga binoan belginalanadigan yuklamalarni vazn toifalarini inobatga olib yo'naltirish orqali erkin kurashchilarni musobaqa faoliyatida toj usullarini amalga oshirgandan so'ng parter holatida hujum harakatlarini davom ettirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurashchilarning mashg'ulotiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 14-oktabrdagi № 03-16/10158-son guvohnomasi). Natijada, erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 14,2 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy holatlari va natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta (3 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarda) ilmiy maqolalar chop etilgan. Bundan 1 ta maqola "Scopus"da chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya ishi 115 sahifa kompyuter matnida bayon etilgan bo'lib, kirish, 4 ta bob, 8 ta rasm, 21 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuni dolzarbligi va zarurati, tadqiqotni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoni o'rganilganlik darajasi, tadqiqotni dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliliigi ko'rsatib o'tilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyani "**Sport yakkakurashlarini rivojlanishi muammolari va istiqbollari to'g'risida zamonaviy fandagi fikrlar: zamonaviy erkin kurashda rivojlanish an'analari**" deb nomlangan birinchi bobida har xil malakadagi, yoshdagi, jinsdagi va kurash turidagi, jumladan erkin kurashdagi sportchilarni tayyorlash tizimida texnik-taktik mahoratni oshirish muammolarini turli tomonlarini tizimli nazariy tahlil qilish natijalari bayon qilingan. Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, quyidagi dalillarni aniqlash imkonini berdi: sport yakkakurashlari sohasidagi bir qator tadqiqotlar tahlil qilindi, Xalqaro Olimpiya harakatida sport kurashini evolyusiyasi va uni yuqori malakali kurashchilarni tayyorgarligini asosiy komponentlariga ta'siri tahlil qilingan. Sport kurashi qoidalariga 2005-yili kiritilgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar hamda ushbu o'zgarishlardan keyin yunon-rum va erkin kurash turlarini Olimpiya

o'yinlari tarkibiga kiritilgan ro'yxatdan chiqarib tashlash xavfi yuzaga kelgan muammolar ochib berilgan. Musobaqalarni o'tkazilishi qoidalariga 2013 yili kiritilgan o'zgarishlar va UWW (Birlashgan kurash dunyosi) rahbarlarini qizg'in harakatlari tufayli, musobaqalarni o'tkazilishiga prinsipial o'zgartirishlar kiritilgan va kurashchilarning faoliyatlari faollashgan va tomoshabop bo'lgan.

Kurashchilarning musobaqa faoliyati usullarini bellashuvni olib borishga nisbatan barqaror tizimi sifatida chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bo'limi alohida ajratilgan bo'lib, bu yetakchi mutaxassislariga kurashchilarni har bitta ajratilgan guruhlari uchun xarakterli bo'lgan maxsus belgilariga ega uchta guruhni ajratish imkonini bergan. Kurashning xalqaro va milliy turlari bo'yicha musobaqalarning natijalarini tahlil qilish, erkin kurash, dzyudo, yunon-rum va sambo kabi kurash turlariga xos bo'lgan texnik-taktik harakatlar va jismoniy sifatlar yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuning uchun trenirovka jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish, ularning jismoniy imkoniyatlarini oshirish va oxir-oqibatda kurashning milliy turlarini ham ommalashtirish uchun qo'llanilishi mumkin. A.A.Novikov, N.A.Kerimov, F.A.Kerimov, N.Yu.Nerobeev, R.N.Apoyko, K.N.Murodov, A.U.Xamidjanov kabi mutaxassislarning fikriga ko'ra, mazkur muammo xatolarga yo'l qo'yish usuli bilan sodir bo'ladigan texnik ko'nikmalarni sakllantirish bilan bog'liq. Erkin kurashchilarni tayyorlash bo'yicha mavjud dasturlarning ko'pchiligida bellashuvni har xil usulda olib boradigan kurashchilarni morfo-funksional xususiyatlari hisobga olinmagan, vaholanki ushbu ko'rsatkichlar nafaqat kurashchini joriy holatini aniq va ishonchli baholashni balki, uni zahira imkoniyatlarini ham bashorat qilish imkonini beradi. Sport-texnik harakatlarni tabiiy biologik sifatlar bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan ko'rsatkichlarni qo'llanilishi kurashchilarning shaxsiy kamchiliklarini kompensatsiya qilish imkonini beradi, bu hozirgi vaqtga qadar detallashtirilgan holda o'rganilmagan.

Dissertatsiyani "**Tadqiqotning usullari va tashkil qilinishi**" deb nomlangan **ikkinchi** bobida tadqiqotning vazifalari, 4 ta blokdan tashkil topgan usullar: kurashchilarni jismoniy sifatlarini pedagogik testlash va texnik-taktik harakatlarini baholash; jismoniy rivojlanishini va somatotiplarni tashhis qilish uchun antropometriya usullari; funksional tashhis etuvchi usullari; matematik statistika usullari yoritilgan. Tadqiqot 3 bosqichdan iborat bo'lib 2020-2024-yillar davomida o'tkazildi.

Tadqiqotlarni birinchi bosqichi (2020-yil). Tajribalarda ishtirok etganlar tadqiqotning vazifalariga bog'liq holda, tarkibi va son jihatdan farq qildi masalan, antropometrik tadqiqotlarni o'tkazish paytida 64 nafar erkin kurashchilar, somatotipologik tadqiqotlarda esa sport kurashini har xil turlari bilan shug'ullanadigan – 72 nafar sportchilar jalb qilindi. Pedagogik testlash paytida erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bo'lgan sport ustaligiga nomzod malakasiga ega 30 nafar malakali sportchilar sinovda ishtirok etishgan. Testlash muolajasi mutaxassislarning tavsiyasiga binoan amalga oshirilgan bunda, bajarishni aniqligini bosh mezon – sherikni to'g'ri ushlab yiqitishning asosiy strukturasi saqlash va sherikda uchish fazasini mavjudligi hisoblanadi.

Funksional holat fiziologik usullar yordamida baholandi, ularni jismoniy ishchanlikni ifodalovchi kardiorespirator tizimini ko'rsatkichlari tashkil qildi. Tadqiqotning antropometrik va somatotipologik usullari yordamida jismoniy rivojlanishni baholash, somatotiplar toifalari bo'yicha somatotipologik taqsimlash amalga oshirildi. Qaddi-qomat tiplarini shakllanishini hamda somatotiplash erkin kurashchilarda taqsimlanishi aniqlangan.

Tadqiqotlarni ikkinchi bosqichi (2021-2022-yillar). Tadqiqotning ushbu bosqichida erkin kurashchilar tayyorgarligini integral vositalarni qo'llash bilan texnik-taktik tayyorgarligini tajribaviy dasturi ishlab chiqilgan va aprotatsiyadan o'tkazilgan bo'lib u har xil harakat sifatlariga bir vaqtda ta'sir qilishni nazarda tutmaydi.

Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi sharafini himoya qilayotgan 24 nafar malakali sport ustasi va sport ustaligiga nomzodlar imtihondan o'tkazildi. O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari bo'lgan sport ustalari va sport ustaligiga nomzod bo'lgan malakali erkin kurashchilar sinovda ishtirok etishgan. Ushbu sportchilar jismoniy rivojlanganligi, funksional holati va sport malakasi darajasi bo'yicha ikkita bir xil turdagi guruhlariga – nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlariga ajratildi.

Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi sharafini himoya qilayotgan 24 nafar malakali sport ustasi va sport ustaligiga nomzodlar imtihondan o'tkazildi. TGda IIVning "Dinamo" sport majmuasi (Toshkent, O'zbekiston) bazasida kurash musobaqasini o'tkazish tartibini hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulot yig'inlari o'tkazildi. Xumson tog' etaklarida joylashgan "Ugom oroli" sport bazasida ham (iyul-sentyabr oylarida) malakali erkin kurashchilar ko'rikdan o'tkazildi. Mazkur sport bazasi respublika Ichki ishlar vazirligi tasarrufida bo'lib, zamonaviy o'quv xonalari bilan jihozlangan bo'lib, unda erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari o'quv-mashg'ulot yig'inlari o'tkazilmoqda. Ta'kidlash joizki, sport bazasi tog' etaklarida joylashgan bo'lib, mashg'ulotlar boshlanishidan avval ertalabdan – toqqa va orqaga 2 km masofaga yugurish testlari kiritilgan bo'lib, buni gipoksiya sharoitidagi mashg'ulot deb hisoblash mumkin. Kurashchilarning jismoniy tayyorgarlikni baholash pedagogik nazorat qilish metodologiyasining eksperimental asoslanishini ishlab chiqqan yetakchi murabbiylar va taniqli ekspertlar (Kerimov F.A., Zamyatin Yu.P., Tarakanov B.I.) tomonidan taklif etilgan pedagogik testlar yordamida baholandi. Nazorat guruhida (NG) mashg'ulotlar tasdiqlangan erkin kurash dasturi bo'yicha olib borildi TGda biz kurash uslubini hisobga olgan holda erkin kurashchilarni blokli tayyorlash bo'yicha eksperimental dasturdan foydalanildi, bunda ma'lum jismoniy sifatlar "kuchli" va "ortda qolgan" tomonlari, shuningdek texnik va taktik harakatlarni bajarish ko'rsatkichlari hisobga olingan. Sport ixtisosligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, yetakchi nazariyotchi va amaliyotchilarning tavsiyalari asosida ularning yakkakurash sport turlari xususan, erkin kurash turlari ehtiyojlariga javob beradigan umumiy va maxsus harakat sifatlarining rivojlanish darajasini baholash maqsadida test nazorati o'tkazildi.

Tadqiqotlarni uchinchi bosqichi (2023-2024-yillar). Tajriba guruhidagi

mashg'ulotlar biz tomondan ishlab chiqilgan erkin kurashchilarni blokli tayyorlashni tajriba dasturi asosida bellashuvni olib borish stilini hisobga olgan holda o'tkazilgan. unda u yoki bu jismoniy sifatlarni aniqlangan "kuchli" va "orqada qolgan" tomonlari hamda texnik-taktik harakatlarni bajarish ko'rsatkichlari hisobga olingan. Shunday qilib ishning uchinchi bosqichida to'plangan daliliy materiallar va ularning tahlili ishlab chiqilgan tajriba dasturini yuqori samaradorligini ishonchli o'rnatdi. Ishlab chiqilgan tajriba dasturini samaradorligi ijobiy o'zgarishlarda kurashchilarni musobaqa faoliyati natijalarini ko'rsatkichlarida tasdiqlangan bo'lib bu sport natijalarini adekvat o'sishini ta'minladi.

Tadqiqotlarning yakuniy bosqichida olingan tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish amalga oshirildi, asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi, dissertatsiya ishini rasmiylashtirish va tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilinishi yakunlandi.

Dissertatsiyani **"Malakali kurashchilarni jismoniy rivojlanishi, jismoniy va funksional tayyorgarligini erkin kurashni rivojlanishini zamonaviy an'analari jihati hisobga olingan xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida erkin kurash sportchilarni sinovdan o'tkazishda qo'llanilgan pedagogik, morfologik, funksional usullarda o'tkazilgan. Olingan natijalar hamda ularning jismoniy tayyorgarligini va texnik-taktik mahoratini pedagogik testlash natijalari orqali yoritilgan. Erkin kurashchilarning somatotiplari xususiyatlarini Xit-Karter (1989) usuli bo'yicha aniqlash bilan antropometrik belgilari asosida aniqlangan. Tajribalarda uchta dominant somatotiplar: ekto-mezomorf, endo-mezomorf somatotip va muvozanatlashgan mezomorf somatotipdagi kurashchilarda aniqlangan. Yuqori sport malakasiga ega va sport ustalari bo'lgan kurashchilar tana massasini komponentlari tarkibi bo'yicha bir turdagi qaddi-qomat vakillari hisoblanadi. Ballik hisoblashda 3.6:4.8:2.5 ballga ega, ya'ni mezomorf komponenti 4.8 ballni tashkil qilgan, yog'li yoki endomorfli komponent – 3,6 ball va vazn-bo'y ko'rsatkichi – 2,5 ballni tashkil qilgan. Erkin kurashchilarda endo-mezomorf somatotiplarni – 66,6% tashkil etadi. Ustivorligi milliy kurashchilarda uchrab – 75%ni, so'ng og'ir atletikachilarda - 73,4% ni tashkil qilgan (1-jadvalga qarang). Ekto – mezomorfli somatotip uchrashish chastotasi dzyudochilarda - 41,7%ni, sambochilarda – 33,4% ni va 25,1% erkin kurashchilarda dominantli yoki ustunlik qilishi aniqlandi.

Sportchilarning kurash uslubini hisobga olgan holda sportchilar 3 guruhga bo'lingan: birinchi guruh kurashchilar hujum uslubini va faqat hujum qilish texnikasini o'zlashtirganlar, ikkinchi guruh qarshi hujum yoki himoya usullarini qo'llaydiganlar va uchinchi guruh esa hujum va qarshi hujum usullarini yaxshi o'zlashtirganlar. Morfo-funksional va pedagogik testlar blokiga quyidagilar kiradi:

PWC₁₇₀ bo'yicha jismoniy ishchanlik qobilyati ko'rsatkichlar, KMO`-kislородni maksimal o'zlashtirishi, qo'l dinamometriyasi, 60 m yugurish, 3000 m yugurish, tik turgan holda uzunlikka sakrash, yuqoriga sakrash. Olingan natijalar 2-jadvalda aks ettirilgan. Eng yuqori jismoniy ishchanlik- 2081,39 kg/m/min kombinatsion stilini afzal ko'rgan kurashchilarda aniqlandi (1- jadvalga qarang).

Hujumkor stildagi kurashchilarda bu ko'rsatkich biroz pastroq - 1834,84 kg/m/min. Himoya stildagi kurashchilarda PWC₁₇₀ ko'rsatkichi bundan ham pastroq bo'lib, 1425,88 kg/m/min ni tashkil etdi.

1-jadval

Sportni kuch turlarida ixtisoslashgan sportchilarni somatotip toifalariga taqsimlanishi

T/r	Ixtisoslashuvi	Endo-mezomorf		Ekto-mezomorf		Muvozanatlashgan mezomorf		Sinovdan o'tgan sportchilarning umumiy soni
		n	%	n	%	n	%	
1	Og'ir atletika	10	73,4	1	8,3	1	8,3	12 nafar
2	Erkin kurash	8	66,6	3	25,1	1	8,3	12 nafar
3	Milliy Kurash	9	75,0	2	16,7	1	8,3	12 nafar
4	Dzyudo	7	58,3	5	41,7	-	-	12 nafar
5	Sambo	7	58,3	4	33,4	1	8,3	12 nafar
6	Yunon-rum kurash	6	50,0	1	8,3	5	41,7	12 nafar

Izoh: Sportchilarni somatotip toifalarga ajratildi: endomorfiya – yog' komponenti; mezomorfiya – muskul komponenti; ektomorfiya – vazn/bo'y ko'rsatkichi

Jismoniy ko'rsatkichlarni baholashning umumiy qabul qilingan mezoni mushaklarning maksimal yuklama ta'sirida kislorodni maksimal o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlandi (S.D.Runenko, E.A.Talambum, E.E.Achkasov, 2010). KMO' usuli bo'yicha baholangan aerobik qobiliyatlar bo'yicha bir hil natijalarni ko'rsatdi. Barcha ko'rsatkichlar "a'lo" deb baholandi, bu o'rtacha 5,69 l / min. tashkil etdi va istiqbolli kurashchilar R. X., Ch. J., S.N. Turli ixtisoslikdagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi bir qator jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasiga bog'liq, ayniqsa chidamlilik. Chidamlilik kurashchilar uchun zarur bo'lgan yetakchi sifati bo'lib, u uzoq vaqt davomida jismoniy ishchanligini saqlashini namoyon etadi. Mashqlantirishning eng muhim sharti - bu maxsus chidamlilikni rivojlantirish va takomillashtirish. Kurashchilarning chidamliligini baholash uchun "3000 m yugurish" testi (tepalikka ko'tarilish) ishlatilgan. O'rtacha yugurish natijasi kombinatsion stili bo'yicha mutaxassislashgan kurashchilar uchun - 10 daqiqa 37 soniya, hujumchi kurashchilar uchun - 10 daqiqa 49 soniya; Himoya uslubidagi kurashchilar uchun natija -11 min. 11 soniya. Umumiy natija 10 daqiqada taqdim etilgan bo'lsa-da, farqlar soniyalarda topildi. Eng yaxshi natijalarga kombinatsion stildagi kurashchilar erishdi; eng past ko'rsatkich himoyaviy stildagi kurashchilarda aniqlandi. Tezlik sifati 60 m yugurishda testi orqali aniqlandi. Eng yaxshi natijalar quyidagi ketma-ketlikda aniqlandi - kombinatsion stildagi kurashchilar uchun -8,18 soniya, hujumkor kombinatsion stildagilar uchun -8,21 soniya va himoyaviy stildagi uchun- 8,24 soniya. Ko'rinib turibdiki tez yugurish natijalaridagi farqlar sportchilarning morfologik va funksional xususiyatlariga bog'liq. Kurashchilarning tezlik va kuch sifatlarini baholash uchun "tik turgan holda uzunlikka sakrash" va "tik turgan holda sakrash" ikkita testdan foydalanildi. Ushbu testlarda xususan "tik turib

uzunlikka sakrash”da eng yaxshi natija hujumkor kurashchilarda -241,87 sm, kombinatsion stildagi kurashchilarning ko‘rsatkichlari biroz pastroq bo‘lib, -241,74 sm ni tashkil etdi; Eng past natija himoyaviy stildagi kurashchilarda qayd etildi - 238,52 sm. Turgan holda sakrash testining natijasi kombinatsion stildagi kurashchilar maksimal (50,23 sm) va himoya stildagi kurashchilar eng kichik (49,68 sm) hisoblanadi. Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun dinamik yo‘nalishdagi yuklamalar bilan bog‘liq (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Erkin kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy ishchanlik qobiliyatini bellashuvni olib borish stiliga bog‘liq holda baholash

n= 20	PWC ₁₇₀ kg/m/min	KMO`		QDH	Kaft dinamome triya o‘ng/chap	Yugurish 60 m/soniya	Yugu- rish 3000m /soniya	joyida turib uzunlik sakrash	Joyida turib yuqoriga sapchish
		Abs.	Baho						
Kombinatsion stil									
R. X	2673,8	6,9	o‘rta	8,2	61/49	8,20	635	245,5	51,5
V. A	2058,6	5,5	a‘lo	8,3	50/50	8,16	630	242,2	51, 2
S. N	2093,5	4,7	a‘lo	7,0	36/39	8,22	635	240,8	49,7
Ch. J	2057,5	6,8	a‘lo	9,6	45/38	8,15	633	241,9	49,9
R. A	1921,2	5,3	a‘lo	8,5	32/34	8,18	638	239,4	50,3
U. M	1884,9	5,2	a‘lo	10,7	36/36	8,16	637	241,7	48,8
A. G`	1880,2	5,4	a‘lo	9,5	50_46	8,22	648	240,7	51,2
O‘.A.+	2081,39	5,69	a‘lo	8,83	44,3//41,7	8,18	637	241,74	50,23
Xujumkor stil									
I. B	1941,0	5,3	yaxshi	6,0	38/42	8,22	640	240,8	51,4
O. A	1630,6	4,4	yaxshi	9,0	48/44	8,18	645	242,6	50,8
Sh.R	1627,5	4,6	past	7,6	50/41	8,30	662	239,7	49,4
K. M	1616,5	4,6	a‘lo	8,9	45/40	8,16	633	241,2	50,6
J. U	1610,5	4,5	a‘lo	7,5	43/39	8,20	660	240,6	49,8
S.A	2527,9	6,5	a‘lo	8,8	50/47	8,18	638	242,4	50,9
O. Z	1889,9	5,2	a‘lo	8,9	49/47	8,24	626	245,78	51,03
O‘.A.	1834,84	5,01	yaxshi	8,1	48,4/42,9	8,21	649	241,87	50,56
Himoya stil									
R. N	1493,1	4,3	yaxshi	7,3	42/42	8,20	641	239, 5	49,7
B. J.	1283,9	3,8	qoniqarli	8,4	48/48	8,22	645	236,8	49,3
A. J.	1457,6	3,9	yaxshi	8,7	44/41	8,25	662	238,8	48,9
X. S	1202,7	3,7	past	7,5	39/40	8,26	653	239,9	49,2
R. S	1769,5	4,7	a‘lo	9,6	49/47	8,22	669	238,6	51,2
A. A.	1348,5	3,9	yaxshi	8,9	48/45	8,30	646	238,5	49,8
O‘.A.	1425, 88	4,05	yaxshi	8,4	45/43,8	8,24	671	238,52	49,68

Izoh: PWC₁₇₀ -jismoniy ishchanlik qobilyati; KMO`-kislородni maksimal o‘zlashtirish; QDH-qonni daqiqalik hajmi

Jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlikni o‘rganish paytida olingan ma‘lumotlarni tahlil qilindi. “Sherikni tashlashni 5 minutlik” testi bilan “2000 m ga yugurish” testining o‘zaro korrelyatsion koeffisienti $-(r = 0,53)$, “4 soniyada 1 tashlash sur‘ati rad etgunga qadar” tashlash testi bilan “2000 m ga yugurish” testining o‘zaro korrelyatsion koeffisienti $-(r = 0,55)$, “Arqonga chirmashib chiqish” testi bilan “kurash ko‘prigi” holatida majmuaviy mashqlar, “yarim buralib 5 marta beldan oshirib tashlash” testlarining o‘zaro korrelyatsion koeffisienti $-(r = 0,51)$, “Arqonga

chirmashib chiqish” testi bilan “ko’krakdan oshirib 5 marta tashlash”lar testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti - ($r = 0,52$), “Mokisimon yugurish 4x10 m” testi bilan “kurash ko’prigi” holatida majmuaviy mashqlar testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti - ($r = 0,52$), funksional holat va texnik-taktik tayyorgarlik ko’rsatkichlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni o’rganish paytida olingan ma’lumotlarni tahlil qilindi. “Sherikni tashlashni 5 daqiqalik” testi bilan “GSTI” testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,55$); “GSTI” testi va “4 soniyada 1 tashlash sur’ati bilan rad etgunga qadar” tashlashlar testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,52$); “GSTI” testi bilan “kurash ko’prigi” holatida majmuaviy mashqlar testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,53$); “GSTI” testi bilan “ko’krakdan oshirib 5 marta tashlashlar” testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,51$); “Ko’krakdan oshirib 5 marta tashlashlar” testi bilan “HOR” (harakatlanuvchi ob’ektga reaksiya) ning o’zaro bog’lanish koeffisienti -($r = 0,58$); “Shtange probasi” testi bilan “sherikni 5 daqiqatashlash” testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,59$); “Shtange probasi” testi bilan “4 soniyada 1 tashlash sur’ati bilan rad etgunga qadar” tashlashlar testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,55$); jismoniy tayyorgarligi va funksional holati ko’rsatkichlari o’rtasidagi o’zaro korrelyatsion bog’liqlikni o’rganish paytida “2000 m ga yugurish” testi bilan “GSTI” testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,56$); “2000 m ga yugurish” testi bilan “O’TS” testining o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,58$); “Mokisimon yugurish 4 x 10 m” testi bilan “oddiy reaksiya”ning o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,57$); “Mokisimon yugurish 4 x 10 m” testi bilan “HOR”ning o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,55$); “Arqonga chirmashib chiqish” testi bilan “oddiy reaksiya”ning o’zaro korrelyatsion koeffisienti -($r = 0,52$) tashkil etdi.

Aniqlangan o’zaro korrelyatsion bog’lanishlar yuqori informativligini tasdiqladi va ularni pedagogik nazorat testlari majmuasi tarkibiga albatta kiritilishi zarurligini ko’rsatadi (3- jadvalga qarang).

3-jadval


Jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik tayyorgarlik ko’rsatkichlari o’rtasidagi o’zaro korrelyatsion bog’liqlik, (r)

T/r	Testlar	Yugurish 2000 m (min.,s)	Arqonga chirmashib chiqish, s	Tanani rostlovchi mushaklar dinamometriyasi, kg	Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	Mokisimon yugurish 4 x 10 m, s
1	Sherikni tashlashni 5 daqiqalik testi (marta)	0,53	0,42	0,48	0,43	0,44
2	4 soniyada 1 tashlash sur’ati bilan «rad etgunga qadar» tashlashlar (min., s)	0,55	0,39	0,45	0,42	0,42
3	Kurash “ko’prigi” holatida majmuaviy mashqlar, (s)	0,45	0,51	0,41	0,36	0,52
4	Yarim buralib 5 marta beldan oshirib tashlash, s	0,47	0,51	0,42	0,22	0,49
5	Ko’krakdan oshirib 5 marta tashlashlar, s	0,32	0,52	0,49	0,35	0,21

Izoh: JT va TTT ko’rsatkichlarini o’zaro korrelyatsion bog’liqlik natijalar

Bu og’ir vaznli kurashchilar musobaqa faoliyati tuzilishining boshqa vazn toifasidagi sportchilardan eng katta farqlarini ko’rsatadi, bu esa musobaqa

faoliyatining individual xususiyatlarini aniqlash orqali ushbu farqlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlash imkonini beradi.



1-rasm. Texnik-taktik ko'rsatkichlarning jismoniy tayyorgarlik parametrlari, fiziologik ko'rsatkichlar va somatometrik belgilari bilan ishonchli korrelyatsiyasi

Tahlili shuni ko'rsatadiki, vazn toifalarining o'sishi bilan ko'rsatkichlar ortib boradi: og'ir vaznli kurashchilarda barcha ko'rsatkichlar o'rtachadan yuqori, bu katta tana o'lchamlariga ega bo'lgan sportchilarning katta funksional imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Korrelyatsion tahlil ma'lumotlarini taqqoslab, sportchilar mahoratining ushbu jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikning o'rtacha darajasini qayd etish mumkin. Keltirilgan ko'rsatkichlarning texnik-taktik mahoratning 4 ta mezonini bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti - 11 hisoblanganda 5 % ahamiyatlilik darajasida ishonchli qiymatlarga erishildi (1-rasmga qarang). Shu bilan birga, hujum natijadorligi ko'rsatkichi oddiy harakat reaksiyasi ($r=0,81$), murakkab reaksiya ($r=0,69$), tos-son bo'g'imidagi harakatchanlik ($r=0,73$) bilan sezilarli darajada bog'liq edi. Hujum samaradorligi ko'rsatkichining ish qobiliyati ($r=0,68$) va bel kuchi ($r=0,61$) parametrlari bilan ishonchli korrelyatsiyasi. Hujum intervali ko'rsatkichi 4 ta ko'rsatkich (umumiy va kuch chidamliligi, chaqqonlik va O'TS) bilan $r=0,65-0,84$ oraliqida ishonchli korrelyatsiyalanadi. Texnikaning ko'p qirraliligi ko'rsatkichi bo'y, kuch va chaqqonlik ko'rsatkichlari bilan $r=0,61-0,71$ oraliqida sezilarli darajada bog'liq.

Erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik parametrlari, ayrim fiziologik

ko'rsatkichlari va somatomatrik belgilari bilan texnik natijalarining korrelyatsion tahlili natijalarini umumlashtirgan holda quyidagilarni qayd etish mumkin:

Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolarini sinovdan o'tkazish natijalarini ko'rsatishicha, kurashchilarning bir qismida yuqori aerob imkoniyatlari namoyish etilgan, lekin boshqa kurashchilarda yuqori jismoniy ishchanlik qobiliyati (PWC_{170}), past aerobli imkoniyatlar bilan birga o'tadi.

- tezkor-kuch sifatlari, chidamlilik, koordinatsion qobiliyatlar, bo'y-vazn ko'rsatkichlari va O'TS parametrlari asosiy sport-texnik ko'rsatkichlar bilan ishonchli bog'liq bo'lib, og'ir vaznli kurashchilarning sport yutuqlariga eng katta ta'sir ko'rsatadi;

- olingan ma'lumotlar erkin kurashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulot jarayonida ko'rsatilgan parametrlardan foydalanish zarurligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

Og'ir vazn toifasidagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik mahoratining belgilangan tuzilishi, shuningdek, fiziologik ko'rsatkichlari va somatometriik belgilarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotning tajriba qismini ishlab chiqish yo'llarini aniqlash imkonini berdi.


Mashg'ulotning eksperimental metodikasi har qanday yakkakurash turida yuqori darajadagi mahoratga erishishning muhim omili hisoblangan gavda tuzilishini hisobga olgan holda bellashuvni olib borishning individual uslubi asosida tuzilgan.

Ushbu metodikaning asosiy xususiyatlari 2-rasmda keltirilgan bo'lib, uning mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tajriba dasturi o'quv-mashg'ulot jarayonining an'anaviy tuzilishidan bir qancha sezilarli farqlarga ega.

Tajriba-sinov dasturida vosita va usullar dinamik muvofiqlik tamoyili (takroriy, bir maromda, takroriy, intervalli, uyg'unlashgan, kompleks) asosida tanlandi, ular pedagogik nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish asosida kurashchilar tayyorgarligini individuallashtirish yo'nalishida nazorat testlar va ko'rsatkichlar majmuasi bo'yicha amalga oshirildi.

Sinovdan o'tkazilgan erkin kurashchilar shartli ravishda uch guruhga bo'lindi.

Ushbu rasmda antropometrik va somatometriik usullar yordamida erkin kurash, milliy kurash, dzyudo, sambo, yunon-rum kurash turlariga saralash uchun kurashchilarni mashqlantirish jarayonini farqlanishi, o'ziga xos usullar va vositalarni qo'llanilib borildi. Tana massasi tarkibida farqli o'zgarishlar orqali tanlangan erkin kurashchilar somatotiplari bo'yicha endo-mezomorfiya, ekto-mezomorfiya, muvozanatlashgan mezmomorfiya kabi uchta toifaga ajratish hisobiga har bir kurash turiga xos dominant somatotip shakllantirish imkoniyati oshirildi.



3-rasm. Erkin kurashchilarni texnik-taktik tayyorlash sxemasi

Jumladan erkin kurashchilarni hujumkor stilda jismoniy ishchanlik ko'rsatkichi - 1834,84 kg/m/min teng bo'lib, yuqori ishchanlik qobiliyatini namoyon etdi. Kurashchilarni qolgan qismining ishchanligi himoya stilida- 1425,88 kg/m/min., kombinatsion stilda 2081,39 kg/m/min gacha ko'tariladi va jismoniy ishchanlik "a'lo" baho bilan baholangan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Erkin kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy ishchanlik qobiliyatini bellashuvni olib borish stiliga bog'liq holda qiyosiy baholash

T/r	Ko'rsatkichlar	Xujumkor stil	Himoya stili	Kombinatsion stil	Xujumkor / Himoya			Xujumkor / Kombinatsion			Himoya / Kombinatsion		
					farqlarni g%	t	P	farqlarni g%	t	P	farqlarni g%	t	P
1	PWC ₁₇₀	1834,84	1425,88	2081,39	24,1	2,95	<0,05	13,4	1,5	>0,05	49,5	3,26	<0,05
2	KMO'	5,01	4,05	5,69	19,8	3,11	<0,05	13,6	1,61	>0,05	41,5	3,76	<0,05
3	QDH	8,10	8,27	8,83	2,1	0,31	>0,05	9,0	1,17	>0,05	6,8	0,98	>0,05
4	O'ng kaft dinamometriyasi	48,40	45	44,3	7,0	1,99	>0,05	8,5	1,03	>0,05	1,6	0,17	>0,05
5	Chap kaft dinamometriyasi	42,90	43,8	41,7	2,1	0,52	>0,05	2,8	0,44	>0,05	4,8	0,76	>0,05
6	Yugurish 60 m	8,21	8,24	8,18	0,4	1,45	>0,05	0,4	1,45	>0,05	0,7	3,55	<0,05
7	Yugurish 3000m	10,49	11,11	10,37	2,1	1,14	>0,05	1,1	0,78	>0,05	3,2	2,78	<0,05
8	Joyidan turib uzunlikka sakrash	241,87	238,52	241,74	1,4	3,87	<0,05	0,1	0,12	>0,05	1,3	3,86	<0,05
9	Joyidan turib yuqoriga sapchish	50,56	49,68	50,23	1,7	2,16	>0,05	0,7	0,71	>0,05	1,1	1,13	>0,05

Izoh: PWC₁₇₀ -jismoniy ishchanlik qobiliyati; KMO' -kislorodni maksimal o'zlashtirish; QDH-qonni daqiqalik hajmi

Kurashchilarning 11 nafarida kuch indeksi “a’lo” baho bilan baholangan, 5 nafarida “yaxshi” baho bilan, 4 nafarida – “o’rta” va 1 nafari “o’rtadan past” baho bilan baholangan. Yurak-tomir tizimi ko’rsatkichlari ichida tinch holatdagi va yuklamalar paytidagi YuQS ko’rsatkichlari yuqori trenirovka qilgan sportchilar uchun xos bo’lgan darajada aniqlangan, xususan “mashg’ulot qilganlik bradikardiyasi” fenomeni tasdiqlangan. Yurak-tomir tizimini yuqori darajadagi zahira imkoniyatlari, xususan, QDH (qonni daqiqalik hajmi) ko’rsatkichi bo’yicha – (14,011 dan to 15,305 l/min.gacha) sport ustasi bo’lgan 6 nafar erkin kurashchilar uchun aniqlangan.

Dissertatsiyani **“Erkin kurashchilarni tayyorgarligi jarayoni samaradorligini bellashuvni olib borish uslubini hisobga olgan holda oshirish” deb nomlangan to’rtinchi bobida** Sport faoliyatining erta bosqichlarida, ular tomonidan hujum usullaridan oldin qo’llaniladigan texnik harakatlar, himoya yoki hujum stilidagi kurashchilar uchun konkret usullar raqibni himoya harakatlari bilan birgalikda o’zlashtirilgan. Kurashni tik turgan holatda bajariladigan quyidagi turlari tasvirga olingan: oyoqlarni ushlab olib zarba bilan ag’darish; qo’lni va tozni ushlab sho’ng’ib o’tkazish; aylanitib o’tkazish (vertushka); nomdosh b’lmagan qo’l va oyoqni tashqaridan ushlab burilib tashlash (tegirmon); beldan oshirib tashlash; qo’l va gavdani chalish bilan ushlab qayirib tashlash; bo’yinni yuqoridan va nomdosh oyoqni ushlab urib yiqitish; qo’l va gavdani ushlab o’tirib tashlash; bo’yin va uzoq qo’lni oldindan ichkaridan ushlab urib tashlash; yelkadan ushlab ustidan oshirib tashlash; qo’l va gavdani yonboshdan ko’tarish bilan ushlab burilib tashlash. Parter holatida quyidagi tashlashlar va to’ntarishlar tasvirga olingan: belni ushlab aylantirib to’ntarish; yaqindagi boldirni ilib va bo’yindan ushlab kerilib to’ntarish; boldirni chalishtirib ushlab qayirib to’ntarish; uzoqdagi sonni teskari ushlab ag’darib to’ntarish; uzoqdagi boldirni va uzoqdagi yelkani ushlab yarim aylantirib to’ntarish; qo’l va belini ushlab aylantirib to’ntarish; bo’yinni orqadan ushlab oyog’ini qaychisimon ilib qayirib to’ntarish; bo’yinni va oyoqni biriktirib ushlab ag’darib to’ntarish. Kombinatsion kurashda raqibni oyoqlariga ta’sir ko’rsatish bilan bajariladigan usullarni qo’llash hujum ta’sirini kuchaytirish va tezroq sof g’alabaga erishish imkonini beradi.

Qo’llar va oyoqlar bilan bir vaqtda bajariladigan ikki tomonlama ta’sir qilish raqibni muvozanatdan tezroq chiqaradi, natijada muvozanatni yo’qotish sodir bo’ladi. Kurashchi tomonidan barqaror muvozanatni yo’qotilishi tufayli, hujum qilayotgan kurashchini harakatini nazorat qilish imkoni ham yo’qoladi. Bellashuvni olib borishni kombinatsion stili tayyorgarlik harakatlari va hujum usullarini raqibni himoya yoki qarshi hujum harakatlari bilan o’zaro bog’liqligiga asoslangan. Usullar kombinatsiyasi boshqa alohida usullardan farqli ravishda sezilarli darajadagi ustivorlikka ega. Bu raqib hujumni majmuaviylikidan bexabar birinchi hujumdan mustahkam himoyalaniшни bajarishga urinadi va kombinatsiyani yakunlovchi usuliga navbatdagi himoya bilan reaksiya qilishga ulgurmay qolishi bilan sodir bo’ladi [58; 47., 90; 88-92]. Erkin kurashchilar o’rtasida o’tkazilgan anketa-so’rov natijalarini ko’rsatishicha, kombinatsion va hujum stilidagi kurashchilar tomonidan bellashuv vaqtida eng ko’p qo’llaniladigan usullar qatoriga 41% holatlarda raqibni oyoqlarini changallab ushlab o’tkazish va 51% holatlarda raqibni oyoqlarini changallab ushlab tashlashlar kiradi.

5-jadval
Erkin kurashchilar uchun tajribaviy mashg' ulot dasturini bellashuvni olib borish stilini hisobga olish bilan tavsiflash

Bellashuvni olib borish stili	Erkin kurashda qo'llaniladigan vositalar	Uslullarni amalga oshirish va yuqori natijali texnik-taktik harakatlarni amalga oshirish	Yuklama hajmi	
			Soatlarda (haftalik yuklama)	% da
<p>Kombinatsion stil:</p> <ol style="list-style-type: none"> R.X. V.A. S.N. Ch.Z. R.A. U.M. A.G. 	<p>Gimnastik snaryadlarda mashqlar: turnik, arqon, qo'shpoya);</p> <p>Trenajyorlardagi mashqlar – shtanga va disklar bilan mashqlar: Kurash "ko'prigi"dagi mashqlar; rezinali amortizatorda imitatsion mashqlar; - yarim buralishlar va raqibni urib yiqitishlar; trenirovka manekenni mashqlar;</p> <p>Egilib tashlashlar; buralib tashlashlar; aylanib tashlashlar va o'tkazishlar; bukilib tashlashlar; keskin harakat yoki sho'ng'ish bilan o'tkazishlar; bir-birini chalkash changallab ushlash bilan o'quv bellashuvlari sparring-sherigini oyoqlarini gilamdan uzish bilan; Qo'shimcha vaqt bilan o'quv-trenirovka bellashuvlari; sparring-sheriklar bilan intervalli-aylana usuldagi trenirovka bellashuvlari.</p>	<p>Asosiy turish holati:</p> <p>1. Tik turish va parter holatidagi texnik harakatlarni takomillashtirish</p> <ol style="list-style-type: none"> Ikki oyoqni ushlash bilan o'tish 5 min davomida sherikni tashlashlar oyoqlarni changallab ushlash bilan tashlashlar «shoh» usullarni mukammal darajagacha ko'tarish tana mushaklarini rivojlantirish uchun «Yuqorigi blokni tortish» trenajyorlar va boshqalarni qo'llash. Kurash "ko'prigi"dagi majmuaviy mashqlar oyoqlarni changallab ushlash bilan olib o'tishlar; 2000-3000 m toqqa qarab yugurish <p>Sherik:</p> <ol style="list-style-type: none"> boldirlarni qaychisimon ushlab qayirib to'ntarish; dumalatib olib o'tishlar raqibning hujumi vaqtida samarali himoyalarni takomillashtirish kombinatsion stildagi kurashchilarda taktik maneralarni takomillashtirish 	32/18	100/56.25
<p>Xujumkor stil:</p> <ol style="list-style-type: none"> I.B. O.A. Sh.R. K.M. I.U. S.A. O.Z. 	<p>1. Gimnastika snaryadlaridagi mashqlar;</p> <p>2. Faqat bitta tasnif guruhida tashlashlarni baholash bilan trenirovka bellashuvlari (masalan, bukilib tashlashlar);</p> <p>3. «Fora» (imkoniyat) berish bilan trenirovka bellashuvlari; qisqartirilgan reglament bilan trenirovka bellashuvlari;</p> <p>4. Qo'shimcha vaqt bilan trenirovka bellashuvlari</p> <p>5. bukilib tashlashlar; yarim burilib tashlashlar; aylanish bilan tashlashlar va olib o'tishlar; egilib tashlashlar.</p>	<p>II. Kurashchilar tomonidan natijaviy texnik-taktik usullarni takomillashtirish</p> <ol style="list-style-type: none"> yarim bukilib tashlashlar ko'krak ustidan tashlashlar tashlash bilan qadam bosish oyoqlarni changallab ushlash bilan tashlashlar <p>d) bellashuvni olib borishni xujumkor usuli bo'yicha taktik maneralarni takomillashtirish</p> <ol style="list-style-type: none"> yarim burilib tashlashlar (orqadan oshirib tashlash bilan) 5 min davomida sherikni o'zgaruvchan sur'at bilan tashlashlar kurashning o'ziga xos elementlarini mukammal egallash 2000-3000 m toqqa qarab yugurish 	32/18	100/56.25
<p>Himoya stili:</p> <ol style="list-style-type: none"> R.N. B.J. A.J. X.S. R.S. A.A. 	<p>Gimnastika snaryadlaridagi mashqlar:</p> <p>Trenajyorlardagi mashqlar – shtanga va disklar bilan mashqlar;</p> <p>Kurash "ko'prigi"dagi mashqlar;</p> <p>sparring-sheriklar bilan intervalli-aylana usuldagi trenirovka bellashuvlari .</p>	<p>III. Raqibni xujumi vaqtida «shoh» usullarni keyinchalik amalga oshirish bilan himoya harakatlarni takomillashtirish</p> <ol style="list-style-type: none"> Kuch bilan bosim o'tkazish taktikasini qo'llash erkin kurashni xarakterli elementlarini mukammal o'zlashtirish majmuani mukammal darajaga yetkazish usulni amalga oshirish vaqtida gilamdan tashqariga chiqib ketish 	32/14	100/43.75

Himoya stilidagi kurashchilar uchun tik turgan holatdagi TTH ichida eng natijaviylari – himoya harakatlarini keyinchalik raqibni xujumlari paytida «shoh» usullarni amalga oshirish bilan (25,1%), kuch bilan bosim o‘tkazish taktikasini (20,9%) qo‘llash hisoblanadi. Tik turgan holatdagi qolgan barcha TTH harakatlarini ulushi faqat 15%dan iborat, jumladan sho‘ng‘ish bilan olib o‘tish (9%), yarim buralib, bukilib yoki qadam bosish bilan tashlashlar (2,5%), qarshi usullar va ustidan bosishlar (3,5%). Bunda, kurashchilar parterda eng kam miqdorda TTH bajarishadi (13,0%), ustivorlik to‘nkarish bilan tashlashlarga 9% va «chalkashtirilgan boldir»larni changallab aylanishlarga 4,0% mansub (5- jadvalga qarang).

Tajribaviy dasturdagi erkin kurashchilar uchun eng xarakterli bo‘lgan vositalar va usullar blokiga quyidagi mashqlar kiritilgan: gimnastik snaryadlardagi mashqlar (turnik, arqon, qo‘shpoya); trenajyorlardagi mashqlar – shtanga va diskalar bilan mashqlar; kurash “ko‘prigi”dagi mashqlar; rezinali amortizatorlarda imitatsion mashqlar; yarim buralishlar va raqibni urib yiqitishlar; trenirovka manekenini tashlashlar; ko‘krak ustidan tashlashlar; yarim buralib tashlashlar; aylanib tashlashlar va o‘tkazishlar; bukilib tashlashlar; keskin harakat yoki sho‘ng‘ish bilan o‘tkazishlar; bir-birini chalkash changallab ushlab bilan o‘quv bellashuvlari sparring-sherigini oyoqlarini gilamdan uzish bilan; faqat bitta tasnif guruhida tashlashlarni baholash bilan trenirovka bellashuvlari (masalan, bukilib tashlashlar; «Fora» (imkoniyat) berish bilan trenirovka bellashuvlari; qisqartirilgan reglament bilan trenirovka bellashuvlari; qo‘shimcha vaqt bilan o‘quv-trenirovka bellashuvlari; sparring-sheriklar bilan intervalli-aylana usulidagi mashg‘ulot bellashuvlari (5- jadvalga qarang).

Shuni aytish joizki, mashg‘ulot yuklamasini rejalashtirish paytida bellashuvni olib borish xususiyatlari hisobga olingan va bunga bog‘liq holda, kurashchilar quyidagi guruhlariga ajratilgan: hujum stilidagi kurashchilar; himoya stilidagi va kombinatsion stildagi kurashchilar. Shu tufayli biz tomondan kurashchilarni mashg‘ulot yuklamalari korreksiya qilingan.

6-jadval

Mashg‘ulot sikli bosqichlarida NG erkin kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarligi ko‘rsatkichlarini o‘shirishini qiyosiy baholash (n=12)

T/r	Testlar	Birinci bosqich M±m	Ikkinchi bosqich M±m	Ishonchlilik		Uchinchi Bosqich M±m	Ishonchlilik		farq %
				t	P		t	P	
1	Kurash “ko‘prigi”dagi majmuaviy mashqlar, sek	18,1±0,50	17,7±0,48	1,99	>0,05	17,2±0,44	2,60	<0,05	4,97
2	Yarim buralib beldan oshirib 5 marta tashlashlar, sek	8,21±0,22	8,18±0,19	0,36	>0,05	8,10±0,20	0,93	>0,05	1,34
3	Sherikni 5 daqiqadavomida o‘zgaruvchan sur‘at bilan tashlashlar, marta	53,2±1,27	53,8±1,31	1,14	>0,05	55,2±1,28	2,68	<0,05	3,76
4	Yugurish 2000 m. min/sek	6,59±0,15	6,50±0,12	1,62	>0,05	6,45±0,11	0,93	>0,05	2,12
5	Turnikda tortilish, marta	16,7±0,76	17,0±0,79	0,95	>0,05	18,0±0,56	3,67	<0,05	7,78
6	Sonlarni rostlovchi mushaklar dinamometriyasi, kg	157,4±1,37	157,9±1,40	1,24	>0,05	159,0±1,43	1,92	>0,05	1,15
7	Arqonga tirmashib chiqish, sek.	5,03±0,06	5,01±0,04	0,17	>0,05	4,98±0,04	1,44	>0,05	0,99

Izoh:Nazorat guruhida texnik -taktik mashqlar uch bosqich davomida o‘shirish dinamikasi

“Shoh” usullarni takomillashtirishni asosiy shartlari – texnik-taktik harakatlarni amalga oshiriladigan arsenalini uzluksiz kengaytirish va “shoh” usullarni natijaviy amalga oshirishga ko‘maklashadigan taktik tayyorgarlikni eng samarali variantlarini doimiy izlash hisoblanadi. Shuning uchun trenirovka jarayoniga nafaqat orqa va tana mushaklarini rivojlantirish, balki bel va erkin qo‘l mushaklarini ham rivojlantirish imkonini beradigan maxsus mashqlar majmuasi va trenajyor moslamalarini ham kiritdik. KMO‘ bo‘yicha aerob imkoniyatlarini eng past darajasi himoya stilidagi kurashchilarda aniqlangan (4,05 l/min). Shu tufayli kurashchilarni tayyorlashni trenirovka jarayoniga uzoq masofaga yugurish xususan, toqqa ko‘tarilish va pastga tushish kabi jismoniy tayyorgarlik, trenirovka ta’siri davomida qo‘llaniladigan aerob yo‘nalishdagi mashqlar kiritilgan bo‘lib, bu aerob imkoniyatlarini a‘lo darajada baholash imkonini berdi.

Bellashuvni kombinatsion uslubda olib boradigan kurashchilarda bir xil turdagi natijalar aniqlangan va aerob imkoniyatlariga ko‘ra KMO‘ usuli bo‘yicha baholanganligini aytish joiz. Barcha ko‘rsatkichlar “a‘lo” darajada baholangan va bu o‘rtacha 5,69 l/min.ni tashkil qildi. Jismoniy ishchanlik qobiliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham va KMO‘ ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham eng istiqbolli kurashchilar – R.X., Ch. J., S. N. kabilar bo‘ldi.

Tajriba davomida NG va TG erkin kurashchilarini texnik-taktik ko‘rsatkichlari natijalarini o‘rishini qiyosiy tahlil qilish bo‘yicha ma’lumotlar 6-7-jadvallarda keltirilgan. Ancha salmoqli natijalar ikkala guruh kurashchilarini tajribaning uchinchi bosqichida testlash natijalarini tahlil qilish paytida olindi. Tajriba guruhi kurashchilarini jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha barcha ko‘rsatkichlari tajribaning uchinchi bosqichida ustivorlikka ega bo‘ldi. Bunda maxsus chidamlilikni va maxsus tezkor-kuch sifatlarini tavsiflovchi testlardagi ko‘rsatkichlarni o‘rishidagi farqlarning ahamiyatliligi ishonchli darajagacha ko‘tarildi ($P \leq 0,05$).

Tajriba davomida almashtirilmagan va tajriba (n=12) va nazorat guruhi (n=12) kurashchilarini jismoniy tayyorgarligi darajalarini taqqoslash imkonini bergan. Biz qayd qilgan testlar natijalarini dinamikasi bir xil vaqt oralig‘ida – har 3 oydan keyin aniqlandi, ya’ni tajribalar yillik mashg‘ulot sikli davomida uch bosqichda o‘tkazildi. Ushbu guruh tarkibining malakasi va sportdagi yutuqlari darajasi bo‘yicha o‘xshashligini aniqlash tajriba va nazorat guruhi kurashchilari o‘rtasida o‘tkazilgan testlash natijalari matematik statistika usulida – olingan natijalarni juftlikdagi taqqoslash bilan amalga oshirildi. Shuni aytish joizki, olingan natijalar sport tayyorgarligini tayyorgarlik turlarini o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi tamoyilini, ya’ni tezkor-kuch, chidamlilik, kuch, epchillik kabi jismoniy sifatlarni rivojlanishiga ko‘maklashadigan trenirovkani jadal usullarini uyg‘unlikda qo‘llanilishini tasdiqlaydi. Bunda nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini, balki maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarida ham o‘rish borligi tasdiqlangan.

Bu jismoniy tayyorgarlikning har xil jihatlarini aks ettiradigan jismoniy sifatlarning 7 ta ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalarida ishonchli namoyon bo‘ldi. Bunday holat tajriba guruhida qo‘llanilgan erkin kurashchilar tayyorgarligini

tajriba dasturini ma'qulligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tajribada olingan miqdoriy ko'rsatkichlarning natijalari NG va TG kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari dinamikasini taqqoslash asosida amalga oshirildi (6-7-jadvalga qarang).

7-jadval

Mashg'ulot sikli bosqichlarida TG erkin kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlarini o'sishini qiyosiy baholash (n=12)

T/r	Testlar	Birinci bosqich M±m	Ikkinchi bosqich M±m	Ishonchlilik		Uchinchi Bosqich M±m	Ishonchlilik		farq %
				t	P		t	P	
1	Kurash "ko'prigi"dagi majmuaviy mashqlar, sek	17,8±0,42	16,3±0,41	4,89	<0,05	15,8±0,38	4,23	<0,05	11,2
2	Yarim buralib beldan oshirib 5 marta tashlashlar, sek	8,23±0,20	7,55±0,17	4,03	<0,05	7,35±0,15	4,19	<0,05	10,7
3	Sherikni 5 daqiqadavomida o'zgaruvchan sur'at bilan tashlashlar, marta	54,8±1,31	58,8±1,30	4,39	<0,05	58,8±1,30	3,50	<0,05	7,3
4	Yugurish 2000 m. min/sek	6,58±0,16	6,46±0,11	2,39	<0,05	6,20±0,11	3,77	<0,05	5,8
5	Turnikda tortilish, marta	17,0±0,80	17,8±0,81	2,72	<0,05	20,0±0,85	3,90	<0,05	17,6
6	Sonlarni rostlovchi mushaklar dinamometriyasi, kg	158,8±1,42	160,9±1,44	3,02	<0,05	163,2±1,50	3,40	<0,05	2,8
7	Arqonga tirmashib chiqish, sek.	5,05±0,06	4,95±0,04	4,37	<0,05	4,92±0,03	2,70	<0,05	2,6

Izoh:Tajriba guruhida texnik -taktik mashqlar uch bosqich davomida o'sish dinamikasi

Tajriba davrida NG kurashchilarini jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish, bosqichdan bosqichga qarab testlardagi natijalarni ortishi sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, tajriba boshida o'zgaruvchan sur'at bilan tashlashlar" testida (2 marta), "Kurash "ko'prigi"dagi majmuaviy mashqlar" testida (0,9s), "Sonlarni rostlovchi mushaklar dinamometriyasi" testida (1,6 kg) yaxshilanganligi to'g'risida dalolat beradi,lekin ijobiy o'zgarishlar ishonchli ahamiyat darajasiga erishmadi ($p \leq 0,05$).Tajriba davrida NG kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish, bosqichdan bosqichga qarab testlardagi natijalarni ortishi sodir bo'lganligini ko'rsatadi NG kurashchilarini "Yarim buralib beldan oshirib 5 marta tashlashlar" testida (1,34% o'sishi), "Raqibni 5 daqiqa davomida tashlash" testida natijalarni o'sish sur'ati 3,48% teng bo'ldi.

Birinchi bosqichdan to uchinchi bosqichgacha NG kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligi natijalarini o'sishini baholash (6-jadvalga qarang), ko'rsatkichlarni ishonchli o'sishi quyidagi testlarda aniqlanganligini ko'rsatadi: "Kurash "ko'prigi"dagi majmuaviy mashqlar" – 4,97%ni, "Raqibni 5 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'at bilan tashlashlar" – 3,76%ni tashkil qilgan va bu qo'llar mushaklarini segmentlarini rivojlanganligi, kaftni bukuvchi mushaklar

kuchini ortganligi to'g'risida dalolat beradi. Qolgan texnik-taktik harakatlarni xususan, "Yarim buralib beldan oshirib 5 marta tashlashlar" testini bajarish uncha sezilarli oshmagan (1,34%) va olingan natijalar ishonchli emas. "Yugurish 2000 m" testi natijalari – 2,2%ga oshgan, "Arqonga tirmashib chiqish" testi natijalari – 0,99% ga oshgan, lekin ushbu natijalarni ishonchlilik darajasi tasdiqlanmagan (6-jadval). Tajribaning boshidan to yakuniga qadar o'tkazilgan testlash natijalarini tahlil qilish, barcha testlar bo'yicha natijalarni ishonchli o'sishini ko'rsatdi.

Tajribani boshidan to oxiriga qadar bo'lgan davrda o'tkazilgan testlash natijalari barcha ko'rsatkichlarni ishonchli o'sganligi to'g'risida dalolat beradi. TG kurashchilarini birinchi bosqichdan to uchinchi bosqichgacha bo'lgan davrdagi testlash natijalari 7-jadvalda keltirilgan. TG ko'rsatkichlarini ishonchlilik darajasi $p \leq 0,05$ bo'lgan yaxshilanishi tajriba yakunida sodir bo'ldi: "sherikni 5 daqiqadavomida o'zgaruvchan sur'atda tashlash" testida o'sish – 7,3%ni, "Turnikda tortilish" testida – 17,65 martani, "Sonni rostlovchi mushaklar dinamometriyasi" testida – 2,8%ni, "Arqonga chirmashib chiqish" testida – 2,6% ni tashkil qildi. Mazkur ko'rsatkich NGda ham past bo'ldi – 0,99%. Ancha darajadagi o'sish – 11,2% "Kurash ko'prikchasidagi majmuaviy mashqlar" testida aniqlandi. TG kurashchilarini ustivorligi tajribaning uchinchi bosqichida aniqlandi: jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari ancha darajada ortdi. Bunda maxsus chidamlilikni va maxsus tezkor-kuch sifatlarini tavsiflaydigan testlarning ko'rsatkichlaridagi o'sish ishonchli ahamiyat darajasigacha ko'tarildi ($p \leq 0,05$). Buning barchasi, biz ishlab chiqqan va tajribalarda qo'llanilgan dastur jismoniy tayyorgarlikni har xil jihatlarini aks etadigan umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlanishiga ifodalangan ijobiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida dalolat beradi. Bu erkin kurashchilarni tayyorlash paytida tajriba dasturini afzalligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos hisoblanadi.

XULOSALAR

1. Ilmiy-uslubiy ishlarning ko'pchiligida asosiy e'tibor kurashchilarni texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan, lekin musobaqalarni yangi qoidalar bo'yicha o'tkazilishi kurashchilardan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy kuchlanishlarni, balki psixik kuchlanishlarni ham talab qiladi. Bu oxir oqibatda, kuchni tugallanishiga va zahira imkoniyatlarini yo'qotilishga olib keladi. Erkin kurashchilarning tayyorgarligi bo'yicha mavjud bo'lgan dasturlarning ko'pchiligida kurashchilarni bellashuvni olib borishining xilma xil usullari paytidagi tana-funksional xususiyatlari hisobga olinmagan vaholanki, ushbu ko'rsatkichlar kurashchini nafaqat joriy lahzadagi holatini aniq va ishonchli baholash imkonini, balki ularning zahira imkoniyatlarini ham bashorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga ko'tarilgan muammolarni ko'pchiligi hozirgi vaqtga qadar detallashtirilgan holda o'rganilmagan va bu tadqiqotlarni o'tkazish uchun asos hisoblandi.

2. Kurashning har xil turlarini xususan erkin kurash, kurash, dzyudo, sambo, yunon-rum kurashi, sportning kuch turlaridan – og'ir atletika vakillari bo'lgan sportchilar tadqiqotga jalb qilindi. Sinov uchun tanlangan atletlar somatotiplari

bo'yicha uchta toifaga: endo-mezomorfiya, ekto-mezomorfiya, muvozanatlashgan mezomorfiya kabilarga ajratildi. Kurashchilar ichida eng ko'pchilikni – 75%ni endo-mezomorfiya toifadagilar tashkil qildi, keyin og'ir atletikachilar – 73,4%, erkin kurash sportchilar ichida endo-mezomorfiya toifadagilar – 66,6%ni tashkil qildi. Dzyudochilar va sambochilarda endo-mezomorfiya somatotiplarini uchrashi chastotasi – 58,3%, dzyudochilarda – 41,7%, sambochilarda – 33,4%ni tashkil qilgan.

3. Erkin kurashchilarning funksional holati va texnik-taktik tayyorgarligi natijalari o'rtasida korrelyatsion o'zaro bog'liqliklar hisoblab topilgan. Xususan "Kurash ko'prigi" holatidagi majmuaviy mashq» testi ko'rsatkichlari bilan bir qator ko'rsatkichlar: tezkor-kuchni aniqlovchi test "Mokisimon yugurish 4x10 m" o'rtasida ($r = 0,52$); chidamlilikni rivojlantiruvchi test "Yugurish 2000 m" o'rtasida ($r = 0,45$); Garvard step-testi ko'rsatkichlari o'rtasida ($r = 0,53$) korrelyatsion o'zaro bog'liqliklar aniqlangan. "Arqonga chirmashib chiqish" testi natijalari bilan ixtisoslashgan "yarim buralib beldan oshirib tashlashlar 5 marta" testi o'rtasida ($r = 0,51$) va "ko'krakdan oshirib 5 marta tashlashlar" testi o'rtasida ($r = 0,52$) o'zaro bog'liqliklar aniqlangan. Erkin kurashchilarga nisbatan qo'llanilganda "Kurash ko'prigi holatidagi majmuaviy mashq" testi natijalari uni informativ va zarur pedagogik nazorat testlari majmuasi tarkibiga majburiy kiritilishi zarur deb hisoblashga asos bo'ladi.

4. Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlash uchun bellashuvni olib borish uslubini hisobga olish bilan pedagogik testlash amalga oshirilgan bo'lib, u, kurashchilarning "yetakchi" va "orqada qolgan" jismoniy sifatlarini baholash imkonini berdi. Kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini baholash uchun "Joyidan turib uzunlikka sakrash" va "Joyidan turib yuqoriga sakrash" testlari qo'llanilgan. "Joyidan turib uzunlikka sakrash" testida eng yaxshi natija hujumkor uslubdagi kurashchilarda kuzatilgan – 241,87 sm, kombinatsion uslubdagi kurashchilarda – 241,74 sm; eng past natija – himoyalaniş uslubdagi kurashchilarda kuzatilgan – 238,52 sm. "Joyidan turib yuqoriga sakrash" testida maksimal natija kombinatsion uslubdagi kurashchilarda (50,23 sm) va eng past natija (49,68 sm) himoyalaniş uslubidagi kurashchilarda kuzatilgan. Dinamometriya ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori darajadagi kuch ko'rsatkichlari xujumkor uslubdagi kurashchilarda kuzatilgan, ularning o'ng va chap qo'li kuchi asimmetriyasi yorqin ifodalangan bo'lsada 48,4/42,9 kg. ni tashkil qilgan, keyin himoyalaniş uslubidagi kurashchilarda mos ravishda o'ng va chap qo'l kuchi – 45/43,8 kg.ni, kombinatsion uslubdagi kurashchilar uchun – 44,3/41,7 kg natija qayd qilingan.

5. Funksional holat ko'rsatkichlari bilan erkin kurash uslubidagi kurashchilarni texnik-taktik tayrgarligi natijalari o'rtasidagi korrelyatsion o'zaro bog'liqlik hisoblab topildi, xususan, "Kurash ko'prigida"gi majmuaviy mashqlar testi ko'rsatkichlari bilan bir qator ko'rsatkichlar o'rtasida, ya'ni tezkor kuch testlari natijalari "Mokisimon yugurish 4x10 m" ($r = 0,45$), chidamlilik testi 2000 m yugurish ($r = 0,45$); va Garvard step-testi ($r=0,53$) ko'rsatkichlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi isbotlangan. "Arqonga chirmashib chiqish" testi

natijalari bilan ixtisoslashgan testlar “Buralib orqadan oshirib tashlashlar, 5 marta»” ($r=0,51$) va “«Bukilish bilan besh marta tashlashlar»” ($r=0,52$) natijalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. “Kurash ko‘prigida”gi majmuaviy mashqlar testi erkin kurash uslubida ixtisoslashgan kurashchilar kontingentida qo‘llanilganida uni informativ va majburiy deb hisoblash, ularni pedagogik nazorat testlari tarkibiga majburiy qo‘shish imkonini beradi.

6. Yillik mashg‘ulot sikli doirasida ishlab chiqilgan tajriba dasturida har bir uslubdagi kurashchi uchun sport bellashuvlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar keltirilgan. Individuallik tamoyilini hisobga olish, tadqiqot o‘tkazish paytida erkin kurash bo‘yicha eng istiqbolli kurashchilarni ajratish imkonini berdi. Masalan, jismoniy ishchanlik qobiliyati ko‘rsatkichlari nafaqat tanlangan ixtisoslikda sport malakasi darajasiga mos keladigan marker, balki joriy funksional tayyorgarlikni markerlari ham hisoblaandi. Agarda pedagogik tajribaning boshida kurashchilarning jismoniy ishchanlik qobiliyati ko‘rsatkichlari 1450 kg/m/min.dan to 1900 kg/m/min atrofida bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakunida PWC-170 eng katta qiymatlari quyidagi kurashchilarda aniqlandi: R. X., - 2673,8 kg/m/min, S.A - 2527,9, Ch. D. - 2057 kg/m/min., I. B. - 1941 kg/m/min.

7. Korrelyatsiya koeffitsientini 92 tasidan 21 ta ko‘rsatkichida ishonchli aloqa aniqlangan bo‘lib, bu hisoblangan koeffitsientlarni umumiy miqdoridan 22,7%ni tashkil qiladi. Buning barchasi kurashni ixtisoslashgan ko‘nikmalarini shakllanishi va takomillashuvi rivojlangan jismoniy sifatlar bazasida sodir bo‘lishi, sport-texnik harakatlar ko‘rsatkichlarini keyingi ortishi umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi bilan bir vaqtda sodir bo‘lishi to‘g‘risidagi holatni tasdiqlaydi.

8. Yillik mashg‘ulot sikli doirasida ishlab chiqilgan tajriba dasturi mashqlanish yuklamasini rejalashtirish paytida bellashuvni olib borish xususiyatlari hisobga olingan va shunga bog‘liq holda, ular guruhlarga ajratilgan: xujum uslubidagi kurashchilar, himoya uslubidagi kurashchilar va kombinatsion uslubidagi kurashchilar. Shu tufayli biz bellashuvni olib borish uslubini hisobga olgan holda ajratilgan kurashchilarni trenirovka yuklamalarini korreksiya qildik. “Shoh” usullarni takomillashtirishning asosiy shartlari texnik taktik harakatlarni amalga oshiriladigan arsenalini uzluksiz kengaytirish va “shoh” usullarni natijaviy bajarishga ko‘maklashadigan taktik tayyorgarlikni eng samarali varaintlarini doim izlash hisoblanadi. Shuning uchun trenirovka jarayoniga maxsus mashqlar majmuasi va nafaqat orqa va tana mushaklarini rivojlantiruvchi, balki bel mushaklari va erkin qo‘lning mushaklarini ham rivojlantirish imkonini beradigan texnik vositalardan trenajyor moslamalar kiritilgan. Masalan ximoya uslubidagi kurashchilarda KMO‘ bo‘yicha aerob imkoniyatlarini past darajasi aniqlangan (4,05 l/min). Shu tufayli kurashchilar tayyorgarligini trenirovka jarayoniga jismoniy tayyorgarlikni uzun masofaga yugurish, xususan, toqqa qarab yugurib chiqib tushish turlari kiritilgan, trenirovka ta’siri davomida qo‘llaniladigan aerob yo‘nalganlikdagi mashqlar kiritilgan, bular sportchilarni aerob imkoniyatlarini oshirishga olib keldi.

9. Nazorat guruhi erkin kurashchilarini texnik-taktik ko‘rsatkichlari natijalarini

birinchi bosqichdan to uchinchi bosqichgacha o'sishi, "Kurash ko'prigi" holatidagi majmuaviy mashq testidagi o'sish – 4,97%ni, "Sherikni o'zgaruvchan sur'at bilan 5 daqiqadavomida tashlash" testida o'sish – 3,76%ni, "Turnikda tortilish" testida eng yuqori ko'rsatkichga – 7,78%ga yetganligini ko'rsatdi. Bu qo'llar segmentlari mushaklarini xususan, kaftni bukuvchi mushaklar kuchini ortishi to'g'risida dalolat beradi. Qolgan texnik-taktik harakatlarni bajarish, xususan, "Buralib orqadan oshirib tashlashlar, 5 marta" testi o'rtasida ($r=0,51$) va "Bukilish bilan besh marta tashlashlar"ni bajarish – 1,34%ga, 2000 m yugurish natijalari – 2,2%ga oshgan, "Arqonga chirmashib chiqish" testi natijalari atigi – 0,99%ga ortgan. Tajriba davrida NG kurashchilarini jismoniy tayyorgarligida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish, bosqichdan bosqichga qarab testlar bo'yicha natijalarni ortishi kuzatilganligini konstatatsiya qilish zarur. Lekin ijobiy o'zgarishlar ishonchli qiymatlarga yetmadi ($p\leq 0,05$).

10. Tajribaning uchinchi bosqichida TG kurashchilarini ustivorligi aniqlangan: jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari quyidagi testlar bo'yicha "Sherikni o'zgaruvchan sur'at bilan 5 daqiqadavomida tashlash" testida o'sish – 7,3%ni, "Turnikda tortilish" testida – 17,6%ni, "Sonni rostlovchi mushak dinamometriyasi" testida – 2,8%, "Arqonga chirmashib chiqish" testida – 2,6%ni tashkil qilgan, ishonchlilik darajasi ($p\leq 0,05$). «Ko'prikcha holatidagi majmuaviy mashq» testida ancha darajadagi – 11,2% o'sish qayd qilingan. Bunda maxsus chidamlilikni va maxsus tezkor-kuch sifatini tavsiflaydigan testlarda o'sish ko'rsatkichlaridagi farqlar ishonchli qiymatlar darajasiga yetgan ($p\leq 0,05$). Buning barchasi ishlab chiqilgan tajriba dasturini jismoniy tayyorgarlikni har xil jihatlarini aks etadigan umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida dalolat beradi. Bu erkin kurashchilarni tayyorlash paytida tajriba dasturini afzalligi to'g'risida xulosa qilishga asos hisoblanadi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Nazorat o'lchashlar davomida antropometrik, funksional va pedagogik testlarni bajarish navbatini saqlash zarur. Testlarni o'tkazilishi kunlaridagi mashg'ulot ta'sirlari xarakterini standartlashtirish va unda ishtirok etayotgan sportchilar salomatligi darajasini joriy holatini hisobga olish kerak. Masalan sinovdan o'tayotgan alohida sportchilarni funksional holatini baholash paytida arterial bosimni, YuQS ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishi yoki ortiqcha mashg'ulot qilganlik holati uchun xarakterli bo'lgan belgilar aniqlangan.

2. Testlardagi individual ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish asosida o'tkaziladigan test nazoratlari natijalarini tahlil qilish, kurashchilarni tajribani keyingi bosqichlaridagi sport natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yoki musobaqa faoliyati natijalari bilan to'ldirilishi kerak. "Shoh" usullarni takomillashtirishni asosiy shartlari texnik-taktik harakatlarni amalga oshiriladigan arsenalini uzluksiz kengaytirish va ushbu usullarni natijaviy amalga oshirishga ko'maklashadigan taktik tayyorgarlikni eng samarali variantlarini doimiy izlash hisoblanadi.

3. Mashg'ulot rejasini tarkibiga har bir mashg'ulotni mazmuni, uni asosiy

yoʻnalganligi, usullarni ustivor amalga oshirilishi va har bir trenirovka mashgʻulotini sof vaqti kiritilgan. Erkin kurashmashgʻulotlarida koʻp qoʻllaniladigan eng natijaviy asosiy tashlashlarni, yaʼni buralib, bukilib, egilib tashlashlarni mustahkamlash va takomillashtirish hamda changallab olish xususiyatlari nazarda tutiladi. Boshlangʻich bosqichda kurashchilarning ayrim qismida KMOʻ boʻyicha aerob imkoniyatlarni past darajasi (4,05 l/min.) aniqlangan. Shu tufayli, kurashchilarni tayyorlash boʻyicha trenirovka jarayoniga uzun masofaga yugurish, xususan toqqa qarab yugurish (2000 va 3000 m), mashgʻulot taʼsirini butun davri davomida qoʻllaniladigan aerob yoʻnalganlikdagi mashqlar kiritilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СОЛАЙДИНОВ ЭЛМУРОД ШОРОИДИНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ НА ОСНОВЕ
РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/Ped7263

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.jtsu.uz и информационно-образовательном портале “Ziyonet” по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Сафарова Дилбар Джамаловна
кандидат биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кочкаров Атабек Ахматваевич
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жураханов Хамидулло Хожимирзаевич
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет
имени Абу Райхана Беруни

Защита диссертации состоится «___» «_____» 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. (Тел: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@djtsu.uz, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Е здания, 3 этаж, аудитория – 309).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирован под номером _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик ул. Спортчилар, 19. Тел: (0-370) - 717-17 79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76).

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки № ___ от “___” _____ 2025 года)

Р.М. Маткаримов
Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н (DSc), профессор

М.А.Ибрагимов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.п.н (PhD), профессор

А.Н.Шопулатов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире приоритетной проблемой современной спортивной науки является не только поиск эффективных средств достижения высоких спортивных результатов, но и сохранение здоровья борцов вольного стиля, что также считается важной задачей. Решение этой проблемы осложняется различными факторами, среди которых постоянное усиление конкуренции на международном уровне, изменение правил соревнований, повышение уровня технико-тактического мастерства в спортивной деятельности и профессионализация различных методик. В спорте высших достижений «модель Кубертена» трансформируется в «модель Самаранча», что оказывает существенное влияние на процессы организации тренировочной подготовки и проведения соревнований. Происходит сближение олимпийского и профессионального спорта, включение новых видов спорта в программы крупнейших международных соревнований. Все указанные факторы требуют более детального изучения, а также совершенствования системы подготовки борцов вольного стиля с точки зрения повышения эффективности их тренировочной и соревновательной деятельности.

В последние годы коммерциализация спорта во всем мире привела к постоянному усилению конкуренции среди ведущих борцов различных стран за счет выравнивания их спортивного мастерства. Ошибки тренеров нередко снижают стабильность спортивных результатов и даже приводят к неожиданным поражениям высококвалифицированных борцов на престижных международных соревнованиях. Однако физиологические ресурсы спортсменов имеют свои пределы: длительное воздействие субмаксимальных и максимальных нагрузок на организм борцов вольного стиля научно обосновано как фактор, приводящий к снижению их функционального состояния и повышению риска травматизма. Эти обстоятельства обуславливают необходимость совершенствования системы подготовки борцов, включая планирование тренировочного и соревновательного процесса, а также разработку научно обоснованных методик по повышению их технико-тактического мастерства в различных соревновательных условиях.

